

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
OLMALIQ FILIALI**

MASIDIKOV ELYAR MIRSODIKOVICH

**MIS BOYITISH FABRIKASI CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish.

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025 y.

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contend of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of technical sciences**

Masidikov Elyar Mirsodikovich

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish...3

Масидиков Эльяр Мирсодикович

Разработка технологии переработки хвостов медно-обогатительной
фабрики.....21

Masidikov Elyar Mirsodikovich

Development of technology for processing waste from a copper processing
plant.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
OLMALIQ FILIALI**

MASIDIKOV ELYAR MIRSODIKOVICH

**MIS BOYITISH FABRIKASI CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025 y.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.PhD/T4862 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nsumt.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abduraxmonov Soib Abduraxmonovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Muxiddinov Baxodir Faxriddinovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Alimov Rasulxan Sarvarxanovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti**
“MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali.

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “ 17 ” 09 kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz, www.nsumt.uz.

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, axborot-resurs markazida tanishish mumkin (221 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “05” 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil “05” 09 dagi 25 raqamli reestr bayonnomasi)



K. Sanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d, professor

O.U. Fuzaylov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

A.U. Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda mineral xom ashyolarni va texnogen chiqindilarni qayta ishlashning samarali usullarini ishlab chiqish, ularning tarkibidagi foydali komponentlarni to‘liq ajratib olish, qora, rangli va nodir metallarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, chiqindisiz texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, kon metallurgiya sanoatining barcha turdagi texnogen chiqindilarini (konchilik sanoati, boyitish fabrikalari chiqindilari, gidrometallurgik va pirometallurgik jarayonlarning suyuq va qattiq chiqindilari) ishlab chiqarishga jalb etish, foydalanilayotgan reagentlarni jarayonga qaytargan holda murakkab tarkibli birikmalarni alohida oksidlarga ajratish va buning natijasida texnogen chiqindilar tarkibidan foydali komponentlarni ajratib olishni amaliyotga joriy etishga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda mis boyitish fabrikalari chiqindilarini samarali qayta ishlash usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, ularda muammolar qisman hal qilingan bo‘lib, chiqindilarni to‘liq qayta ishlash bo‘yicha yetarlicha kamchiliklarga ega, bunga sabab mis boyitish fabrikasi chiqindilari tarkibidagi qimmatli komponentlar kvarts qurshovida bo‘lib, bu ularni to‘gridan-to‘g‘ri gidrometallurgik usulda tanlab eritish hamda flotatsiya usulda ajratishga imkon bermaganligi sababli jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mahalliy va arzon xomashyolar asosida olingan ekologik xavfsiz reagentlardan foydalanib, mis boyitish fabrikasi chiqindilari tarkibidan qimmatli komponentlarni ajratib olishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda “Olmaliq KMK” AJ ga qarashli mis boyitish fabrikasida mis-molibdenli rudalarini yillar davomida boyitish natijasida ikkita chiqindixonada mis miqdori o‘rtacha 0,11% bo‘lgan taxminan 1459,5 mln. tonna chiqindi to‘planib qolgan. Bundan tashqari 3-mis boyitish fabrikasining ishga tushishi chiqindilar miqdorining ikki barobar ortishiga olib keladi. «Respublikada tog‘-kon va qayta ishlash korxonalarini quvvatlarini oshirish maqsadida mineral-xom ashyo bazasidan foydalanish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, investitsiyalarni faol jalb etish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, chiqindi tarkibidan qimmatbaho metallarni olish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish va ilmiy asoslash, shuningdek, yangi texnologiyalarini yaratish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi¹ to‘g‘risida” gi PF-60 farmoni, “Mis xom ashyosidan yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish hamda mis xom ashyosini chuqur qayta ishlash bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-iyundagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning 2022-26 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni

PQ 5159-sonli “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-oktabrdagi 682-son qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon amaliyotida mis boyitish fabrikasi chiqindilari va mineral xom ashyolardan qimmatli komponentlarni ajratib olish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar rivojiga Dyachenko A.N., Melnichenko Y.I., Epov D.G., Yilmaz A., Can M., Bradshaw D.J., Morozova Y.A, Rudnyov B.P., Maksimova A.M., Semushkina L.V., Gunay A., Ozdemir R., Brito M.A., Fernandes J.R., Mudd G.M., K.S.Sanakulov, A.A.Yusupxodjaev, M.M.Yakubov, A.U.Samadov, A.S.Xasanov, D.B.Xoliqulov, U.Q.Sanaqulov, M.Ernazarov, L.K.Uzdebayeva, M.G.Sagdiyeva, G.A.Lukomskaya, R.S.Alimov, S.Abduraxmonov, F.E.Axtamov, N.M.Askarova, O.N Boltayev, T.Sirojov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini yaratish va takomillashtirishga qaratilgan.

Adabiy manbaalarni tahlil qilish asosida ma‘lum bo‘ldiki, mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan qimmatli komponentlarni ajratib olishda o‘xshash xususiyatli ko‘plab komponentlarning tarkibi bilan bog‘liq bo‘lgan, ularni ajratib olishni qiyinlashtiradigan, hal qilish qiyin bo‘lgan muammolardan biri ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, asosiy texnologik ishlab chiqarishda qimmatli komponentlarni ajratib olish maqsadida mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashga yo‘naltirilgan texnologik jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha muammolar yetarlicha o‘rganilmagan.

Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan kremniy oksidini alohida mahsulot sifatida ajratilib, gidrometallurgik hamda boyitish usullarini qo‘llagan holda, kompleks qayta ishlashning samarador texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish yanada samarali bo‘lishi va ularni qayta ishlash jarayonida yuqori rentabellikka erishish mumkin. Mazkur dissertatsiya ishi mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali ilmiy tadqiqot rejasining AL-6022012291-son “Oksidlangan mis rudalarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mis boyitish fabrikasi chiqindilarini kimyoviy, mineralogik va fraksion tarkibini o'rganish;

mis boyitish fabrikasi chiqindilarini kremniysizlantirish, kuyindidan magnitli fraksiyani ajratish jarayonlarini tadqiq qilish va optimal parametrlarini aniqlash;

magnitsiz fraksiyani sulfat kislotali tanlab eritish jarayonining maqbul parametrlarini aniqlash va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish;

eritmada temirni gidrolizlab cho'ktirish hamda misni ionli flotatsiya usulida ajratib olishning eksperimental usullarini ishlab chiqish va maqbul parametrlarini ilmiy asoslash;

tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazish asosida mis boyitish fabrikasi chiqindisidan mis, temir, boyitmalari hamda oltin va kumushni o'zida jamlagan kek olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Olmaliq KMK" AJ Mis boyitish fabrikasi chiqindixonasida to'planayotgan chiqindi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini ammoniy fluorid ishtirokida sublimatsion kuydirish, elektromagnitli saralash, tanlab eritish va eritmada misni ionli flotatsiya usulida ajratib olishga imkon beradigan texnologiyani ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy usullarni o'zida jamlagan kompleks fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan, xususan gravimetrik, spektrofotometrik tahlil usullari, fotokolorimetriya usullari, atom-absorbsion tahlil, titrlash tahlil usullari shuningdek, chiqindilarini qayta ishlashning raqional usullarini ishlab chiqish uchun tajriba va yarimsanoat sharoitlarda tadqiqotlar, natijalariga Microsoft Excel, Borland Delphi dasturlarni qo'llab statistik va matematik ishlov berish va texnik iqtisodiy baholash kabi kompleks usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mis boyitish fabrikasi chiqindilarini kuydirishdan hosil bo'lgan kuyindini elektromagnitli saralash usulining optimal sharoiti 2,5 A tok kuchida magnitli fraksiyaning yuqori ajralishi 37,3% bo'lib magnitli fraksiyadagi temirning umumiy miqdori 75,1% bo'lishi aniqlangan;

magnitsiz fraksiyani sulfat kislota bilan havo ishtirokida tanlab eritilganda temirni gidrolitik cho'ktirish darajasi 97,2% yetishi aniqlangan;

eritmada misni DEDTKNa yig'uvchi reagentini qo'llagan holda 99% unum bilan ionli flotatsiya usulida ajratib olinishi aniqlangan;

"Olmaliq KMK" AJ mis boyitish fabrikasi chiqindixonalarida to'planib kelinayotgan chiqindilardan mis boyitmasi, temir boyitmasi, hamda oltin, kumush ajratib olishga yordam beruvchi takomillashtirilgan qayta ishlash texnologiya ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologik sxemasi amaliyotga joriy etilgan, bunda dastlabki sublimatsion kuydirishning optimal parametrlari ishlab chiqilgan va kremniy oksidining ajralish darajasi 99,77% ni tashkil etganligi aniqlangan;

kuyindini elektromagnitli saralashda tok kuchi 2,5 A bo'lganda magnitli fraksiyaning ajralishi 37,3% ga yetishi, magnitli fraksiyadagi temir miqdori 75,1% ni tashkil etishi aniqlangan;

magnitsiz fraksiyani tanlab eritishda sulfat kislota konsentratsiyasi 150 g/l, harorat 60°C, tanlab eritish davomiyligi 120 min, aralashtirish tezligi 200 ayl/min, S:Q=5:1. Ushbu sharoitda mis 95,6%, temir 80,84%, kumush 4,9% eritmaga o'tishi aniqlangan;

Eritmadan misni DEDTKNa yig'uvchi reagenti bilan ionli flotatsiya usulida 99% unumdorlik bilan boyitmaga ajratib olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

Mis boyitish fabrikasi chiqindisini sublimatsion kuydirish, magnitli saralash, tanlab eritish, ionli flotatsiya usuli bilan misni ajratib olishning pirometallurgiya, gidrometallurgiya usullari, boyitish texnologiyasi bilan uyg'unlashgan texnologik sxemasi ishlab chiqilgan va sanoatga tadbiiq etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetarli darajada o'tkazilgan laboratoriya va yarim-sanoat tajribalari, ishlab chiqilgan selektiv tanlab eritish va ionli flotatsiya jarayoni optimal rejimlarini qo'llash orqali asosiy komponentni ajratib olish darajasining oshishi nazariy tomondan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarning, eksperimental natijalarga mosligi qayta ilmiy tahlil etilishi va ishning asosiy g'oyasini miqdor jihatidan tasdiqlaydi, shu bilan birga chiqindidan misni ajratib olish darajasini yuqori ekanligini tasdiqlovchi salmoqli ijobiy natijalar, kimyoviy va fizik-kimyoviy analitik tahlillar, shuningdek laboratoriya va sanoat-tajriba sinovlarining muhim ijobiy natijalari bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashga tayyorlash va namunadan kremniy oksidini ajratish maqsadida ftorid ammoniy reagenti ishtirokida sublimatsion kuydirish jarayonini qo'llashning maqbul parametrlarini aniqlash va olingan mahsulotlarning texnik hususiyatlarini tadqiq qilib, kuyundini elektromagnitli seperatordan o'tkazib magnitli fraksiyani ajratib olish, magnitsiz fraksiyani sulfat kislota eritmasida tanlab eritish hamda eritmadan misni ionli flotatsiya usulida yuqori unumdorlik bilan ajratib olishning texnologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlab qimmatbaho komponentlarni ajratib olish bilan tavsiflanib, 75,1% li temir boyitmasi, 11,36% li mis boyitmasi, shuningdek oltin, kumush ajratib olishga yordam beruvchi Au-1,26 g/t, Ag-11,8 g/t saqlagan kek olish, texnologiyasini yaratish uchun xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

Yaratilgan past haroratda kuydirib kremniysizlantirish, orqali mis boyitish fabrikasi chiqindilarini kombinirlangan qayta ishlashning yangi texnologiyasi «Olmaliq KMK» AJ ning mis boyitish fabrikasida amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq KMK» AJ ning 2024 yil 29-noyabrdagi 11-24/01-01613-son ma'lumotnomasi). Natijada, yaratilgan texnologiyani qo'llash mis metalini ajratib

olish darajasini 89,3% gacha oshirish imkonini bergan;

mis boyitish fabrikasi chiqindilarini past haroratda kuydirib kremniysizlantirish, kuyindini magnitli saralash, magnitsiz fraksiyani sulfat kislotali tanlab eritish va eritmani ionli flotatsiya usulida qayta ishlash texnologiyasi «Olmaliq KMK» AJ ning mis boyitish fabrikasida amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq KMK» AJ ning 2024 yil 29-noyabrdagi 11-24/01-01613-son ma'lumotnomasi). Natijada misning umumiy ajratib olish darajasi 89,3% ga oshirish va qo'shimcha ravishda temir boyitmasi hamda tarkibi Au-1,26 g/t, Ag-11,8 g/t kek olish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqotlarning natijalari 5 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida aprotatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga qo'llanish bo'yicha tavsiyalar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashning zamonaviy ahvoli**" deb nomlangan birinchi bobida mis boyitish fabrikasi chiqindilarini hosil bo'lishi va ularni qayta ishlash bo'yicha mavjud texnologiyalar va tadqiqot ishlarini o'rganishga bag'ishlangan. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'tkazilgan, mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan qimmatli komponentlarni gravitacion, flotatsion, elektromagnit, boyitish, shuningdek chiqindilarni qayta ishlashning pirometallurgik, gidrometallurgik va biometallurgik usullari o'rganildi va tahlil qilindi.

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan va ushbu dissertatsiya ishi mazkur muammoni o'rganish va hal qilishga bag'ishlangan.



Dissertatsiyaning "**Tadqiqot obyekt va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekt sifatida "Olmaliq KMK AJ" ga qarashli mis boyitish fabrikasi chiqindilarining kimyoviy, mineralogik va granulometrik tarkibi o'rganilgan. Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra mis boyitish fabrikasi

chiqindilarining asosiy tarkibida SiO_2 (67,31%), Al_2O_3 (13,26%) Fe_{um} (8,69%), Cu (0,11%) Au (0,3 g/t) Ag (3,0 g/t) kabi qimmatli komponentlar mavjudligi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra chiqindilarning fraksion tarkibi va yiriklik fraksiyalarida metallarning katta ulushi (80% dan ortig‘i) +0,1 fraksiyada ekanligi, bu mis rudalarini flotatsion boyitishda yirik kvars minerallari tarkibida bo‘lgan elementlar chiqindida qolishi aniqlandi.


1961-yildan 2024-yilgacha «Olmaliq KMK» AJ mis boyitish fabrikasining ikkita chiqindixonalarida jami 1459,5 mln tonna chiqindilar to‘plangan bo‘lib, mavjud metallarning jami zaxirasi: mis (1563,66 ming tonna), oltin (440,985 tonna) va kumush (4359,69 tonna) mavjud. Ulardan mis, oltin va kumush ajratib olish sanoat ahamiyatiga ega.

Dissertatsiyaning “**Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan qimmatli komponentlarni ajratib olish usullarini tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida mis boyitish fabrikasi chiqindidan SiO_2 ni ajratish, hosil bo‘lgan kuyindini magnitli saralash, magnitsiz fraksiyani sulfat kislotada tanlab eritish, eritmadan metallarni cho‘ktirish va sementatsiyalash imkoniyatlari, hamda eritmadan misni ionli flotatsiya usulida ajratib olish tadqiqot natijalari keltirilgan.

“Olmaliq KMK” AJ ga qarashli mis boyitish fabrikasining ko‘p yillik chiqindilaridan kremniy oksidi ajratib olinsa chiqindini tarkibidagi qimmatbaho komponentlarning miqdori bir necha barobar ortadi buning natijasida chiqindidan qimmatli komponentlarni yuqori unumdorlikda ajratib olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mis boyitish fabrikasi chiqindisini kaustik soda ishtirokida kuydirishni tadqiq qilish dastlab chiqindi tarkibiy qismi bilan shixta tayyorlanib, mufel pechida 450°C haroratda kuydirilganda quyidagi asosiy reaksiyalar ro‘y beradi.



1 va 2 reaksiya bo‘yicha chiqindi tarkibidagi kremniy va alyuminiy oksidlari kuchli ishqor (NaOH) bilan reaksiyaga kirishib natriy silikati (Na_2SiO_3) hamda, natriy aluminati (NaAlO_2) hosil qiladi. Hosil bo‘lgan komponentlar o‘zaro reaksiya natijasida 3-reaksiyadagi murakkab kompleks birikmani hosil qiladi va ushbu kompleks birikmani bir biridan ajratish qiyinchilik tug‘diradi.




1 - rasm. Mis boyitish fabrikasi chiqindisidan SiO_2 ni ajratib olish darajasini haroratiga bog‘liqlik diagrammasi

Olib borilgan tajribalar asosida mis boyitish fabrikasi chiqindisidan SiO_2 ni

ajratib olish darajasini haroratga bog‘liqlik diagrammasi (1-rasm).

1-rasmdan ko‘rinadiki mis boyitish fabrikasi chiqindilarini kaustik soda ishtirokida (250-500°C) oralig‘ida haroratining ortib borishi bilan SiO₂ ni ajratib olish darajasi ortib bordi va 450°C da maksimal qiymatga (71% ga) yetishi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, kuydirishning optimal haroratini 450°C deb qabul qilindi. Shuningdek SiO₂ ni ajratib olish darajasini kuydirish davomiyligiga bog‘liqligi o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan optimal haroratlarda SiO₂ ni ajratib olish darajasini kuydirish davomiyligiga bog‘liqligi


2-rasmda keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki chiqindini 450°C haroratda kuydirish vaqtini oshirish bilan SiO₂ ni ajratib olish darajasi oshib bordi va 90 daqiqaga borganda yuqori qiymatga ya‘ni 86% ga yetdi, kuydirish vaqtini yanada uzaytirish SiO₂ ni ajratib olish darajasini oshishiga olib kelmasligi kuzatildi. Tajriba natijalari 1-jadvalda berilgan. Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, kaustik soda bilan kremniysizlantirish jarayoni reagent sarfi bo‘yicha 100% bo‘lganda haroratning optimal ko‘rsatkichi 450°C bo‘lib, kuydirish vaqti 90 daqiqani tashkil etganda kremniy oksidining ajralishi 86% ga yetishi aniqlandi.

1-jadval

Mis boyitish fabrikasi chiqindisini kaustik soda ishtirokida kuydirish natijalari

Namunani kaustik soda (NaOH) ishtirokida kuydirish							
Chiqindi (g)	Reagent sarfi (%)	Harorat (°C)	Vaqt (min)	Kuyindini tanlab eritish	SiO ₂ ajralishi (%)	SiO ₂ tozaligi (%)	Reagent regeneratsiya yasi (%)
100	100	450	90	H ₂ O	86	89	-

Mis boyitish fabrikasi chiqindisini fluorid ammoniy ishtirokida sublimatsion kuydirishni tadqiq qilish. NH₄F ni qo‘llagan holda qayta ishlash texnologiyasi asosida quyidagi reaksiya yotadi.




4-reaksiya bo‘yicha hosil bo‘ladigan ammoniy geksaforsilikat texnologik jihatdan qulay fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bo‘lib, bu modda normal sharoitda qattiq modda bo‘lib 280°C dan yuqori haroratda sublimatsiyalanadi va gaz fazasiga o‘tadi, 70°C haroratda ammoniy geksaforsilikatni eruvchanligi 360g/l

ga yetadi. AGFS ammoniy gidroksidi bilan ta'sirlashib gidrolizlanishi natijasida SiO₂ cho'kmaga tushadi.




Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini sublimatsion kuydirishning optimal parametrlarini aniqlash maqsadida SiO₂ ni amorf holdagi mahsulotgacha ajralishini turli omillarga bog'liqligi o'rganildi. Dastlab sublimatsion kuydirish haroratini SiO₂ ni ajratib olish darajasiga bog'liqligi o'rganildi. Tajribalar 100°C dan 500°C gacha harorat oralig'ida 1 soat vaqt davomida olib borildi. O'rganish natijalari asosida SiO₂ ni ajratib olish darajasi haroratga bog'liqlik diagrammasi (3-rasm).



3- rasm. Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan SiO₂ ni ajratib olish darajasini sublimatsiyalash haroratiga bog'liqlik diagrammasi


Shuningdek sublimatsion kuydirishning optimal haroratda SiO₂ ni ajratib olish darajasini kuydirish vaqtiga bog'liqligi o'rganildi. Tajribalar 0,5 soatdan 3 soatgacha vaqt oralig'ida olib borildi.

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini 400°C haroratda kuydirish vaqtini oshirish bilan SiO₂ ni ajratib olish darajasi oshib bordi va 120 daqiqaga borganda yuqori qiymatga ya'ni 99,77% ga yetishi aniqlandi, shundan kelib chiqib sublimatsion kuydirishning optimal davomiyligini 2 soat deb qabul qilishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan optimal haroratlarda SiO₂ ni ajratib olish darajasini sublimatsion kuydirish davomiyligiga bog'liqligi

AGFS tarkibidan SiO₂ ni ammiakli suv bilan ajratishning afzalliklaridan biri shundaki jarayon uchun zarur bo‘ladigan NH₄OH ni namunani NH₄F bilan sublimatsion kuydirishda hosil bo‘ladigan ammiakli gazni to‘liq suvga yuttirish orqali olish imkoniyatining mavjudligidir (5-rasm).



1-to‘yingan suv filtr 2-yarim to‘yingan suv filtr, 3-ohirgi bosqich tozalash suv filtri, 4-zahira suv filtr (1 filtr to‘yingach o‘rmini 2-chi suv filtr egallaydi 2-ning o‘rmini 3-filtr 3-filtr o‘rniga har doim yangi suv filtr joylashtiriladi)


5-rasm chiqindini NH₄F ishtirokida sublimatsion kuydirishda ajralib chiqayotgan ammiakli gazlarni suvga to‘liq yuttirish sxemasi

2-jadval

Chiqindini ammoniy ftoridi bilan sublimatsion kuydirish natijalari

Namunani ammoniy ftoridi (NH ₄ F) ishtirokida kuydirish							
Chiqindi (g)	Reagent sarfi (%)	Harorat (°C)	Vaqt (min)	AGFS ni tanlab eritish	SiO ₂ ajralishi (%)	SiO ₂ tozalik darajasi (%)	Reagent regeneratsiya-yasi (%)
100	100	400	120	NH ₄ OH	99,77	99,9	89


Kuyindini elektromagnit usuli yordamida temir va uning magnitli minerallarini ajratish jarayonida magnitli fraksiyani tok kuchining turli qiymatlarida 0,5; dan 3 A gacha sozlagan holda tadqiqotlar olib borildi. Kuyindidan magnitli fraksiyani saralash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari (6-rasm).



6-rasm. Kuyindini magnitli saralash jarayonida temirni magnitli fraksiyaga ajralish darajasi va undagi temir miqdorini tok kuchinig turli qiymatlariga bog‘liqlik diagrammasi

Magnitli fraksiyadagi temirning umumiy miqdori 75,1% ni, magnitsiz


fraksiyadagi temirning umumiy miqdori esa 19,13% ni tashkil qildi. Bunda umumiy olganda magnitli fraksiyani ajratib olish darajasi 37,3% ni tashkil etdi. Shuningdek magnitsiz fraksiyani sulfat kislota eritmasida tanlab eritish tadqiqoti. turli omillarga (kislota konsentratsiyasi, tanlab eritish davomiyligi, harorat, bo'tana zichligi va b.) bog'liqligi o'rganildi. Mis va boshqa metallarni eritmaga o'tish darajasi kislota konsentratsiyasiga bogliq bo'lib, kislota konsentratsiyasi ortishi bilan metallarni eritmaga o'tish darajasi ortib boradi (7-rasm).



7-rasm. Metallarni eritmaga o'tish darajasini H₂SO₄ konsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi

Olib borilgan tajribalar natijasiga ko'ra eritmada sulfat kislota konsentratsiyasini ortishi bilan (150 g/l gacha) metallarni eritmaga o'tish darajasi ortib bordi. Sulfat kislota konsentratsiyasini 150 g/l dan oshirish misni eritmaga o'tish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi, ammo qo'shimcha metallar (ayniqsa temir) ni eritmaga o'tish darajasi oshib ketadi. Magnitsiz fraksiyani tanlab eritishda eritmada sulfat kislota konsentratsiyasini 150 g/l bo'lishi tavsiya etiladi.


Kuyindini sulfat kislota eritmasi bilan aralashtirganda birinchi navbatda misning oksidli minerallari reaksiyaga kirishadi, temir va kumush nisbatan sekin ta'sirlashadi. Magnitsiz fraksiyadan misni tanlab eritish davomiyligini o'rganish



8-rasm. Metallarni eritmaga o'tish darajasini tanlab eritish vaqtiga bog'liqligi

shuni ko'rsatadiki, dastlabki bosqichda (60 daqiqagacha) misni eritmaga o'tishi juda tezlik bilan bo'lib, ma'lum vaqtdan (120 daqiqa) keyin dinamik muvozanatga erishadi. (8-rasm).


Tanlab eritishning optimal vaqti 120 daqiqa deb qabul qilish mumkin. Shuningdek magnitsiz fraksiya tarkibidagi metallarni tanlab eritish uchun haroratning ta'siri o'rganildi. Tajriba natijalariga ko'ra dastlab tanlab eritish haroratining oshishi bilan misning eritmada konsentratsiyasini sekin ortishi kuzatildi. Harorat 40°C dan ko'tarilganda misning eritmaga o'tishi tezlasha boshladi. Bu nisbatan yuqori haroratda CuSO₄ ning tezroq hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi (9-rasm).




9-rasm. Metallarni eritmaga o'tish darajasini haroratiga bog'liqligi

Tajriba natijalariga ko'ra harorat ko'tarilgan sari misning tanlab eritish tezligi ortib bordi, ammo haroratni 60°C dan yuqori bo'lishi jarayonda turli noqulayliklar keltirib chiqaradi hamda qo'shimcha metallarning eritmaga o'tishi tezlashib ketadi.

Misni eritmaga ajratib olish darajasi bo'tanani aralashtirish tezligiga va suyuq faza hajmini qattiq faza hajmiga nisbatiga bog'liqligi (10,11-rasmlarda) keltirilgan. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra tanlab eritishda bo'tanani aralashtirish tezligining ortishi bilan misni eritmaga o'tish darajasi ortib borishi aniqlandi. Aralashtirish tezligini to'g'ri tanlash, metallarni eritmaga o'tish tezligini ortishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.



10-rasm. Metallarni eritmaga ajratib olish darajasini aralashtirish tezligiga bog'liqligi ($\tau=120$ min, $Q:S=1:5$, $t=60^\circ\text{C}$)



11-rasm. Metallarni eritmaga ajratib olishning (S:Q) bog'liqlik grafigi

Shunday qilib, magnitsiz fraksiyani sulfat kislotali tanlab eritish uchun quyidagi optimal sharoitlar aniqlandi: dastlabki eritmada sulfat kislota konsentratsiyasi 150g/l, harorat 60°C gacha, tanlab eritish davomiyligi 120 daqiqa, aralashtirish tezligi 200 ayl/min, S:Q=5:1. Bu sharoitda misning eritmaga o'tish darajasi 95,6%, temirniki 80,84%, kumushniki 4,9% bo'lib kekning chiqishi 79,38% ni tashkil qildi.

Magnitsiz fraksiyani tanlab eritishdan olingan eritma muhiti pH=0,5 ni tashkil etadi. Bu muhitda eritmani ionli flotatsiya qilish qiyin kechadi, ionli flotatsiya qilishning optimal muhiti pH=3-4 ni tashkil etishini inobatga olib kislotali muhitni kamaytirish uchun eritmaga ohak bilan ishlov berildi. Natijada eritma muhiti pH=3-4 ga ko'tariladi va eritma tarkibidagi Fe (III) ionlari gidrolizlanib cho'kadi. Olingan cho'kma filtrlash yo'li bilan ajratiladi (3-jadval).

3-jadvaldan ko'rinadiki eritmani asosiy tashkil etuvchi Fe (III) ion bo'lib, uning gidrolizlanib cho'kishi pH=1,5 dan boshlanadi. pH=3-4 muhitda 97,2% Fe cho'kishi kuzatilgan.

3-jadval

Ohak yordamida eritma muhitini rostlash natijasi

	Cu g/l	Ag g/l	Fe g/l	Ajratib olish darajasi, %		
				Cu	Ag	Fe
Eritma (pH=0,5)	0,821	0,121	36,73	-	-	-
CaO	-	-	-	-	-	-
Eritma (pH=3-4)	0,86	0,122	1,2	100	100	2,8
Gidrat kek (Fe ³⁺)	-	-	-	-	-	97,2

Eritmadan misni sementatsiya usulida ajratib olishni tadqiq qilish temirdan tozalangan eritmada misni kukun holatida cho'ktirish xona haroratida olib borildi. Temir qirindisi bilan 0,5 soatdan 4,0 soatgacha oraliqlardagi vaqt davomida aralashtirgich yordamida aralashtirildi. Jarayonda quyidagicha o'rin olish reaksiyasi sodir bo'ldi:




Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki eritma tarkibidagi misning miqdori kam (0,86 g/l) bo'lganligi sababli misni sementatsiyasi to'liq bormadi. Misning yuqori

ajralishi 3 soatda 80,25% ni tashkil etdi, davomiylik ortishi bilan misni cho‘kishida o‘zgarish kam kuzatildi. Yani besh litr eritmani pH qiymati 1,5-2 oralig‘ida sementatsiyalash natijasiga ko‘ra 3,44 g misli cho‘kma ajratib olindi.

Shuningdek eritmadan metallarni ionli flotatsiya usulida ajratib olish jarayonlarini tadqiq qilish, ionli flotatsiya jarayonini olib borishning optimal sharoitini aniqlash maqsadida pH muhitning turli qiymatlarida tajribalar o‘tkazildi. Yig‘uvchi sifatida dietilditiokarbamat natriy (DEDTK Na) dan ko‘pik hosil qiluvchi reagent sifatida transformator yog‘i (T-92) dan foydalanildi. Ishlab chiqilgan texnologik sxemaga ko‘ra dastlab metalli eritma maxsus aralashtirgichli idishda kislotaliligi pH 3-4 gacha kamaytirish uchun so‘ndirilgan CaO eritmasi qo‘shiladi. Shundan so‘ng eritmaga DEDTKNa solinib metalli birikma cho‘ktiriladi. $(Cu^{+2}+2(C_2H_5)_2NC(S)SNa=[(C_2H_5)_2NC(S)S]_2Cu+2Na^+)$ hosil bo‘lgan bo‘tanaga ko‘pik hosil qiluvchi reagent (T-92) qo‘shilib flotatsiya jarayoni amalga oshiriladi. Bo‘tanani flotatsiyalash natijasida ko‘pikli mahsulot va tozalangan eritma olinadi.

Magnitsiz fraksiyani sulfat kislotali tanlab eritish natijasida olingan eritmada asosan mis, temir va kumush metallariga tahlillar olib borildi. Bu metallardan tashqari rux, molibden, nikel va bir qancha ahamiyatga ega bo‘lgan metallar ham ajraladi. Ionli flotatsiyada eritmada uchraydigan barcha metallarni kompleks ajratib olish imkoniyati mavjud. Ionli flotatsiyalashda yig‘uvchining optimal sarfini aniqlash maqsadida stexiometriya bo‘yicha turli miqdorlarda reagent berib tajribalar o‘tkazildi. Tajribalar natijalari 4-jadvalda keltirib o‘tildi. Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, yig‘uvchi reagent konsentratsiyasining oshirilishi pH ning kichik qiymatlarida ham metallarni ajratib olish darajasining yuqori bo‘lishiga olib keladi (12-rasm).



12-rasm. Metallarni eritmalardan ajratib olish darajasini eritmaning pH muhitiga bog‘liqlik grafigi

Ma‘lum bo‘ldiki pH ning keng intervalida DEDTKNa ning dastlabki konsentratsiyasi 25 g/l bo‘lganda bu usul samarali bo‘lishi aniqlandi. Ionli flotatsiyaning optimal vaqtini aniqlash bo‘yicha 3, 4, 6, 8, 10 daqiqa davomida tajribalar o‘tkazildi, tajriba natijalari 12-rasmdagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki metallarni eritmalardan to‘liq ajratib olish uchun 6-8 daqiqa davomida flotatsiyalash lozim bo‘ladi. Tajriba sharoiti: pH-3-4, yig‘uvchi reagent sarfi-stexiometriya bo‘yicha 100%, T-92 sarfi-3,5 g/m³. Metallarni eritmalardan ionli flotatsiya usulida ajratib olishning maksimal qiymatiga 20-25°C haroratda erishildi


(13-rasm). Haroratning bundanda oshirilishi hosil bo'lgan birikma (sublat) ning eruvchanligining ortishi sababli jarayon samaradorligining pasayishiga olib keladi. Ionli flotatsiyalashda optimal yig'uvchini aniqlash maqsadida turli reagentlar pH ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi (4-jadval).

4-jadval

Eritmadan misni turli reagentlar bo'yicha yuqori unum bilan ajratib olish darajalari

№	Yig'uvchi reagent turi	OptimalpH	Ajralish darajasi (%)
1	Dietilditiokarbamat natriy (3–4	95–99%
2	Natriy dodesil sulfat (NaDS, SDS)	3–6	82–88%
3	Sodium dodecylbenzenesulfonat	4–7	78–85%

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, optimal yig'uvchi reagent DEDTKNa ekanligi, reagent konsentratsiyasining oshirilishi pH ning kichik qiymatlarida ham metallarni ajratib olish darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ma'lum bo'ldiki pH ning keng intervalida DEDTKNa ning dastlabki konsentratsiyasi 25 g/l bo'lganda bu usul samarali bo'lishi aniqlandi.




13-rasm. Metallarni eritmalardan ko'pikli mahsulotga ajratib olish darajasini flotatsiyalash davomiyligiga bog'liqlik grafigi

5-jadval

Metallarni eritmalardan DEDTK Na bilan deyarli 100% ajratib olishga erishilgan pH qiymatlari

Yig'uvchi sarfi	Mis	Temir(III)	Temir(II)
Stexiometriya bo'yicha 100%	4	2	7
Stexiometriya bo'yicha 150%	2	1,5	5

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlashning tavsiya qilinayotgan texnologik sxemasini ishlab chiqish va asoslash deb nomlangan to'rtinchi bobida qayta ishlashning tavsiya qilinayotgan texnologik sxemasiga ko'ra dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash uchun 14-rasmda keltirilgan texnologik sxema tavsiya qilinadi.



14-rasm. Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash uchun tavsiya qilinayotgan texnologik sxema

Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida qayta ishlashning texnologik jarayonlarini boshqarish va modellashtirish uchun Borland Delphi dasturiy ta'minotida foydalanib, EHM lar uchun dastur ishlab chiqilgan. O'tkazilgan tajriba-sinov va yarimsanoat sinovlari natijasi bo'yicha "Olmaliq KMK" AJ mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish uchun tavsiya etilgan texnologiyadan 1000 t

chiqindini qayta ishlashdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 2024 yil narxlari bo'yicha 540 mln so'mni tashkil qiladi.

XULOSA

“Mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Mis boyitish fabrikasi chiqindilaridan SiO_2 ni ajratib olish maqsadida sublimatsion kuydirish jarayoni amalga oshirildi, kuydirishning quyidagi optimal parametrlari aniqlandi: dastlab harorat 100°C da 1-soat davomida ushlab asta sekinlik bilan yana bir soat davomida -400°C , ga yetganda kremniysizlantirish jarayoni nihoyasiga yetdi, va umumiy kuydirish vaqti-2 soatni tashkil etdi. ushbu sharoitda SiO_2 ni ajratib olish darajasi 99,77% ga yetishi aniqlandi.

2. Kuyindidan magnitli fraksiyani elektromagnitli ajratishda optimal ko'rsatkich, tok kuchi 2,5 A ga yetganda magnitli fraksiyani ajratib olish darajasi 37,3% bo'lib, magnitli fraksiyadagi temirning miqdori 75,1% ni, tashkil etishi aniqlandi.

3. Magnitsiz fraksiyadan metallarni tanlab eritish uchun aniqlangan optimal sharoitlar quyidagilar: eritmaga havo berish orqali tanlab eritish davomiyligi 2 soat, H_2SO_4 konsentratsiyasi 150 g/l, tanlab eritish harorati 60°C . Bu sharoitda misni eritmaga ajratib olish darajasi-95,9%, temirniki-80,84%, kumushniki-4,9% bo'lib, kekning chiqishi 79,38%. Olingan eritma tarkibida mis-0,821 g/l; temir-36,8 g/l; kumush -0,122 g/l ni tashkil etadi.

4. Tanlab eritilgan eritma muhiti $\text{pH}=0,5$ ekanligi, eritmada temir (III) ionini gidrolizlab cho'ktirish hamda temirsizlangan eritmani ionli flotatsiya qilish maqsadida eritmaga ohak bilab ishlov beriladi. Natijada eritma muhiti $\text{pH}=3-4$ ga yetganda eritma tarkibidagi Fe (III) ionlari gidrolizlanib cho'kib gidrat kek qo'shimcha mahsulot sifatida olinadi

5. Temir (III) ionlaridan tozalangan eritma tarkibidagi qimmatli metallarni yig'uvchi reagent DEDTKNa qo'llagan holda ionli flotatsiya usulida ajratib olishning optimal parametrlari aniqlandi. Flotatsiyalashda pH ning optimal qiymati 3-4 oralig'ida bo'lishi, DEDTK natriyning konsentratsiyasi 25 g/l, T-92 sarfi-3,5 g/m³, flotatsiyalash vaqti 6-8 minut. Bunda misni eritmada ajratib olish darajasi 99,9% ga yetib tarkibida 11,36% Cu bo'lgan flotoboyitma olindi.

6. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan mis boyitish fabrikasi chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha texnologik sxema tavsiya qilindi hamda dastgohlar zanjir sxemasi va texnologiyaning matematik modeli ishlab chiqildi.

7. Ishlab chiqilgan texnologiyaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlandi. Aniqlangan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asosan 1t chiqindini qayta ishlash bo'yicha kutilayotgan iqtisodiy samara 540000 so'mni, yillik 1000t chiqindini qayta ishlash natijasida kutilayotgan foyda 540 million so'mni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АЛМАЛЫКСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО ТЕХНИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

МАСИДИКОВ ЭЛЪЯР МИРСОДИКОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ХВОСТОВ МЕДНО-
ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКИ**

04.00.14 – Обогащение полезных ископаемых

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Навои – 2025 г

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером №В2024.3.PhD/Т4862.

Диссертация выполнена в Алмалыкском филиале Ташкентского государственного технического университета им. Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский) размещен на вебстранице по адресу www.nsumt.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Абдурахмонов Сойиб Абдурахмонович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Мухиддинов Баходир Фахридинович
доктор химических наук профессор

Алимов Расулхан Сарварханович
доктор философии по техническим наукам (PhD)

Ведущая организация: Алмалыкский филиал НИТУ МИСИС

Защита диссертации состоится «17» 09 2025 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.17/04.06.2021.Т.06.01 (Адрес: 210100, г.Навои, улица Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com.)

С докторской диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за № 221). Адрес: 210100, г.Навои, ул. Галаба шох, 127. Тел.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан «05» 09 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 25 от «05»09 2025 года.)



К.Санакулов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

О.У.Фузайлов
Ученый секретарь совета по Присуждению ученых степеней, д.ф.т.н. (PhD)

А.У.Самадов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на сегодняшний день разработка эффективных способов переработки минерального сырья и техногенных отходов, полное извлечение полезных компонентов из их состава, увеличение объемов производства черных, цветных и благородных металлов, создание безотходных технологий имеет важное значение. Также актуальными вопросами данной отрасли являются вовлечение в производство всех видов техногенных отходов горно-металлургической промышленности (отходы горнодобывающей промышленности, обогатительных фабрик, жидкие и твердые отходы гидromеталлургических и пирометаллургических процессов), разделение соединений сложного состава на отдельные оксиды, путем возврата используемых реагентов в процесс и, как следствие, обеспечение извлечения полезных компонентов из состава техногенных отходов.

Несмотря на то, что в настоящее время в мире проводятся научные исследования по разработке эффективных методов переработки хвостов медно-обогатительных фабрик, проблемы в них частично решены, имеются достаточные недостатки в полной переработке хвостов, причиной этого является то, что ценные компоненты в составе хвостов медно-обогатительной фабрики окружены кварцем, что не позволяет проводить их выщелачивание прямым гидromеталлургическим методом и разделение флотационным методом, поэтому проводятся научно-практические исследования по совершенствованию процесса. В связи с этим особое внимание уделяется вопросам, связанным с разработкой эффективных технологий извлечения ценных компонентов из состава хвостов медно-обогатительной фабрики с использованием экологически безопасных реагентов, полученных на основе местного и дешевого сырья.

В результате многолетнего обогащения медно-молибденовых руд на медно-обогатительной фабрике АО "Алмалыкский ГМК" в нашей республике в двух хвостохранилищах накопилось около 1459,5 млн. тонн отходов со средним содержанием меди 0,11%. Кроме того, запуск третьей медно-обогатительной фабрики приведет к двукратному увеличению количества хвостов. Определены такие важные задачи, как "повышение эффективности использования и переработки минерально-сырьевой базы, активное привлечение инвестиций с целью увеличения мощностей горнодобывающих и перерабатывающих предприятий республики". Исходя из этих задач, большое научное и практическое значение имеют исследования, направленные на разработку и научное обоснование технологических решений по извлечению драгоценных металлов из отходов, а также на создание и совершенствование новых технологий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового

